

Ta'limning zamonaliv transformatsiyasi

Xorazm maqomlari

*Buxoro Davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti musiqa ijrochiligi va
madaniyat kafedrasi*

Vakal an'anaviy xonandaligi ta'lim yo'nalishi

Barziyev Vais Jamshid o'g'li

Annotatsya: Milliy musiqa san'atimiz bo'lmish maqomlarning asl negizi va tarixiy rivojlanish bosqichlari hususida gap borganda Xorazm maqomlarini tadqiq etish judayam o'rinnlidir. Aytim va chertim yo'llarining shakllanish omillari sifatida Shashmaqom va Xorazm madaniy xayoti va unda yashab ijod etgan bir qator xonanda, sozanda, batakorlar xaqidagi ma'lumotlar maqolamizdan o'rinn olgan.

Kalit so'zlar: Xorazm, chertim, aytim, mansur, manzum, maqomi rost, saraxbor, tasnif, tani maqom, peshrav, gardun, muhammas, saqil, xona, bozgo'y.

O'zbek miliy musiqa san'atida maqomlarning o'rni beqiyosdir. Maqomlar nafaqat o'zbek musiqiy madaniy merosida balki butun sharq musiqiy madaniy merosi durdonasi sifatida keng jaxonga ma'lum san'at turidir. O'zbek maqomotida esa Shashmaqom, Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari bilan bir qatorda Xorazm maqomlarining ham ahamiyati kattadir. Matyusuf Xarratovning aytishicha, Xorazm maqomlari Shashmaqomning xuddi o'zidir. XIX asr boshlarida xorazmlik sozanda va bastakor Niyozjon Xo'ja Buxoroga borib, Shashmaqomni o'rganib keladi va Xorazmga olib kelib tarqatadi. Binobarin, Xorazmda maqomlarning keng yoyilishi uchun qulay zamin mavjud edi. Bu o'lkada juda qadimiy musiqa an'analari va maqom ijrochiligidagi boy tajribaga ega bo'lgan ko'plab sozanda, xonanda va bastakorlar yashab ijod etib kelganlar. Al-Xorazmiy (X asr), Abul Vafoi Xorazmiy, Devonai Hisbiy (XV asr) kabi o'nlab olimlarning musiqa risolalarida maqomlar nazariy jihatdan asoslabberilgan edi. Umuman, Sharq maqomlarining tarixiy taraqqiyotiga xorazmlik musiqachilar salmoqli ulush qo'shganlar. Shashmaqom Xorazm sharoitiga moslanib olindi va juda katta

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o‘zgarishlarga uchradi. Xorazmlik mashhur bastakorlar Niyozjon Xo‘ja, Feruz, Komil, Muhammadrasul Mirzo va boshqalar maqomlarga yangi cholg‘u qismlar bastalab, maqomlarni shaklan va mazmunan boyitdilar. Tasnif qismlari o‘rniga har bir maqom nomi bilan ataladigan cholg‘u yo‘llarini yaratdilar. Maqom yo‘llarining kuy tuzilishida ham jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Ular kengaytirilib yoki qisqartirilib, qayta ishlandi. Lekin, Shashmaqom ohanglari asosan saqlanib qoldi. Xorazm maqomlarining cholg‘u yo‘llari keyingi yillarda juda kam ijro etilgan bo‘lib, magnit yozuvlari ham sanoqli darajadadir ayni payitda muhtaram prizidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan tashkil etilgan Respublika maqom markazi tomonidan xar bir maqom yo‘llarimiz namunalaridan maxsus ovoz yozish studyalarida yozib olinayapti. Xorazm maqomlari cholg‘u qismlaridan umumiylashtirilgan tasavvur olish uchun Buxoro maqom cholg‘u yo‘llariga murojaat etish kifoya. Ular orasida ba’zi tafovutlar bor xolos. Masalan, cholg‘u bo‘limlarida Shashmaqomdagagi tasniflar o‘rniga maqomlar nomi bilan ataladigan va saraxborlarga ohangdosh sho‘ba va ufarlar kiritilgan. Cholg‘u qismlarining kuy tuzilishi esa asosan saqlanib qolgan va Xorazmcha uslubda ijro etiladi. Xorazm maqomlari ashula bo‘limi tarkibidagi sho‘balar Shashmaqom yo‘llarining ko‘p jihatlarini asosan saqlab qolgan. Lekin, so‘ngi yillarda Xorazm ashula ijrochiligidagi o‘ziga xos xususiyatlarga bog‘liq holda ba’zi ashula yo‘llari tanib bo‘lmaslik darajada o‘zgarib ketgan. Xorazm maqom sho‘balarining ba’zi qismlari bizgacha yetib kelmagan, ba’zi taronalar unutilib yuborilgan. Ko‘p ashula yo‘llari esa tarona nomi bilan emas, maxsus boshqa nomlar bilan ataladi. Masalan, tarona qismlari Rost maqomida Suvora, Naqsh, Faryod; Buzrukda esa Sayri Gulshan; Navoda Suvora, Faryod, Naqsh; Dugohda Suvora; Segohda Naqsh va Muqaddima deb nomlanadi. Bu narsa Xorazm maqomlari ashula yo‘llarini Shashmaqom sho‘balarini bilan solishtirishda juda katta qiyinchiliklar tug‘diradi. Bundan tashqari ba’zi taronalarning o‘rni o‘zgartirilgan. Ko‘pincha saraxbor taronalari nasr sho‘balarida yoki aksincha foydalanilaveradi. Yana shunisi diqqatga sazovorki Iroq maqomida ashula bo‘limi sho‘balarini umuman uchramaydi va allaqachon unutilib yuborilgan. Hatto Xorazm tanbur chizig‘ida Matyusuf

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xarratovning «Xorazm musiqiy tarixchasi» kitobida ham Iroqning ashula bo‘lim sho‘balari aks ettirilmagan. Maqomlar ashula bo‘limlarining bosh sho‘basi bo‘lgan saraxborlar Xorazmda maqomlar nomi bilan – Maqomi Rost, Maqomi Buzruk, Maqomi Navo, Maqomi Dugoh, Maqomi Segoh kabi nomlanadi. Xuddi Shunday holni cholg‘u bo‘limlarida ham uchratamiz. Bunga sabab Xorazm maqomlarida cholg‘u va ashula bo‘limlari bosh qismlarining kuy tuzilishi va ohanglari bir xilligidir, ya’ni ular ma’lum musiqa asarining cholg‘u va ashula shakllaridir. Maqomlarning bosh mavzusi bo‘lgan birinchi sho‘balaridan umumiylashtirish olish uchun Maqomi Dugohni tahlil qilib chiqamiz: Maqomi Dugohning, ya’ni Xorazmcha «Saraxbori Dugoh»ning kuy tuzilishi Shashmaqomdagi kabi ohanglardan iborat bo‘lsa-da, biroz o‘zgartirilib ijro etiladi. «O‘zbek xalq musiqasi» turkumida bosilib chiqqan oltinchi jild bo‘lmish «Xorazm maqomlari» kitobida Saraxbori Dugoh – Maqomi Dugoh nomi bilan atalib, ashula boshlanadigan asl tonika – birinchi oktavaning «re» pardasi o‘rniga kichik oktavaning «lya» pardasi, ya’ni to‘rt parda pastga tushirilgan. Uning birinchi xati ikki marta takrorlanadigan ashula jumlalaridan iborat. Har biri she’rning bitta bayti bilan o‘qiladigan ikkita xati daromad tuzilmasi bo‘lib, she’r matnisiz aytiladigan ohanglar bilan asl boshlang‘ich pardaga tushiriladi. Uchinchi xat o‘rta pardalarda ijro etiladigan miyonxat bo‘lib, uning har bir ashula jumlesi she’r matnisiz aytiladigan ohanglar bilan ashula boshlangan pardaga qaytib tushadi. Ashulaning to‘rtinchi xati asar boshlanish jumlalarining yuqori pardalaridagi takrori bo‘lmish dunasr, beshinchi va oltinchi xatlari Muxayyari Chorgoh namudi, yettinchi xati tushirim qismlaridan iborat. Ularning hammasi she’r so‘zlarisiz ijro etiladigan ohanglar bilan yakunlanadi. Saraxborlar taronalari bilan aytilgandan so‘ng Xorazm maqomlarida ham talqin deyilgan sho‘balarga o‘tiladi. Tilga olingan «Xorazm musiqiy tarixchasi» risolasida yettita talqin keltirilgan bo‘lib, Xorazm maqomlari nota to‘plamida to‘rttasigina beriladi. Ular Talqini Rost, Talqini Buzruk, Talqini Navo, Talqini Segoh deb nomlanadi. Qolgan talqin yo‘llari Xorazmda unutilib yuborilgan bo‘lsa kerak.

Xulosa: Tadqiqotlardan shunisi ma“lum bo„ldiki bizgacha yetib kelgan

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O`zbekiston Davlat Al-Beruniy nomli Sharqshunoslik instituti fondinda saqlanayotgan XIXasrning ikkinchi yarmida ishlanib xonga tuxfa qilingan nusxalardan biri inventar № 7406 raqamli xattot X. Muxrkon ko,,chirgan “Xorazm tanbur chizg,,ilari” kitobi, hamda Mulla Bekjon Rahmon o,,g,,li va Muhammad Yusuf Devonzodalar “Xorazm musiqiy tarixchasi” risolasida keltirilgan Tanbur maqomlari usullarining bog,,liq va farqli tomonlarini ayrimlarini tahlil qilib yoritdik. Rost maqomi (Mansur) chertim yo,,lidan Tarje“ Rost, Peshravi Gardun va Peshravi Rost, Muxammasi Ushshoq. Navo maqomi (Mansur) chertim yo,,lidan esa Saqil Navo kuylari. Hali oldimizda qilinadigan ishlar talaygina. Ushbu maqom usullarini yoshlar yaxshi o,,zlashtirib olishsa kelgusida har-bir eshituvchini o`ziga rom qila oladigan ohanglardan bahramand bo`ishi shubxasiz.

Foydalanilan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr PK 3391-sonli qarori.
2. Mirziyayev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O,,zbekiston, 2017
3. Xudaybergan Muhirkon. Xorazm tanbur chizg,,ilari. Qo,,lyozma. O,,zR FASHI inv. № 7406.
4. Mullo Bekchon Raxmon o,,g,,li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchasi. Toshkent 1992
5. Aminov H. Tanbur chizig,,i nusxalari. Shashmaqom saboqlari (maqola va ma“ruzalar to’plami). Toshkent 2005.
- 6.https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=UZ7Sh6oAAAAJ&citation_for_view=UZ7Sh6oAAAAJ:Y0pCki6q_DkC